

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

KAM RENTABELLI KONLARNI XO‘JALIK FAOLIYATIGA JALB QILISHDA XALQARO XORIJ AMALIYOTI

Bazarov X. M.

Mustaqil tadqiqotchi

Annotasiya:

Mazkur maqolada rentabelligi past bo‘lgan konlarni xo‘jalik faoliyatiga jalb qilish sohasida mavjud bo‘lgan muammolar, tabiiy boyliklar uchun soliq stavkalarining yuqoriligi, mamlakatimizga xorijiy investorlarini jalb qilishda soliqlarning roli va tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish bo‘yicha joriy qilinishi lozim bo‘lgan yengilliklar to‘g‘risida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: resurs solig‘i, nedra solig‘i, byudjet, soliq ma‘murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o‘rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi, konlar, xorijiy investorlar, geologik qidiruv ishlari, yer qa‘ri, lisenziya, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, BCG (Boston Consulting Group), IMF.

Kirish

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy vazifalaridan biri geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish orqali yuqori darajada qo‘shimcha qiymat yaratishdan iborat.

Bugungi kunda foydali qazilmalarining turlari bo‘yicha zaxira va resurslarni 20 turgacha ko‘paytirish hamda rivojlantirish dasturlariga 2022 yilda 1 000,0 mlrd.so‘m, 2023 yilda 2 127,5 mlrd.so‘m hamda 2024 yilda 2 446,6 mlrd.so‘m mablag‘ ajratish ustuvor vazifa qilib belgilangan¹.

Shuningdek, yer usti tog‘-kon geologiya qidiruv ishlari hajmini 2022 yilda 280,9 ming metr kubga, 2023 yilda 385,0 ming metr kubga, 2024 yilda 407,0 ming metr kubga yetkazish belgilangan².

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг “2022 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида»ги қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-73-сон қарори.

² Ўша ерда.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Bundan tashqari so‘nggi ikki yil davomida kon-metallurgiya tarmog‘ining yirik korxonalarini jadal rivojlantirish, modernizasiya qilish va ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan uzoq muddatli dasturlar qabul qilindi. 2026 yilgacha “Navoiy KMK” DKda mahsulot ishlab chiqarish hajmini 30 foizga, “Olmaliq KMK” AJga 2,9 mlrd. AQSH dollari miqdorida investisiyalar jalb etish va 2023 yilgacha mis ishlab chiqarish hajmini 28 foizga, rux ishlab chiqarish hajmini 75 foizga oshirish ko‘zda tutilgan³.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekiston Respublikasida strategik turdagi foydali qazilmalarning asosiysi davlat korxonalari tomonidan qazib olinadi.

Yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonunchilik normalariga ko‘ra, strategik turdagi foydali qazilmalar — oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, uran, platina va platinoidlar, nodir metallar va nodir elementlar, temir, marganes, uglevodorodlar (neft, gaz, kondensat), ko‘mir, yonuvchi slaneslardan iborat⁴.

Mazkur turdagi foydali qazilmalar joylashgan yer qa’ri uchastkalarini geologik jixatdan o‘rganish faqatgina davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan rivojlantirish dasturlari mablag‘lari hisobiga amalga oshirimoqda. Geologik qidiruv davrida soliqlar va boshqa to‘lovlarning to‘lanishi qidiruv o‘tkazilmagan hududlarni o‘rganishni rag‘batlantirmasdan qolmoqda.

Bugungi kunda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari yuqoriligi sababli xorijiy investorlarni yangi konlarni o‘zlashtirishga sarmoya kiritishni rag‘batlantirmayapti. Aksincha faoliyat yuritayotgan kompaniyalar faqat foydali qazilmalar yuqori tarkibli konlardan qazib olishga harakat qilib, past rentabelli konlar o‘zlashtirilmay qolmoqda.

Shuningdek, uglevodorod xom ashyosi bo‘yicha stavkalarining yuqoriligi mahsulot taqsimotiga oid bitimlar doirasida boshqa stavkalarni joriy qilgan holda ish olib borish tizimini yaratib berdi.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги “Кон-металлургия тармоғи корхоналари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4121-сон қарори.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ер қаъри участкаларидан фойдаланиш ҳуқуқи учун лицензиялар бериш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2020йил 23 июндаги 403-сон қарори



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsak, ushbu xujjat shartnoma hisoblanib, unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi haq olish asosida va muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni qazib chiqarish hamda shular bilan bog'liq bo'lgan ishlarni olib borish uchun mutlaq huquqlar beradi, investor esa ushbu ishlarni o'z mablag'lari hisobiga va tavakkal qilib amalga oshirish majburiyatini olishi tushuniladi. Foydali qazilmalarni geologik jihatdan o'rganish davrida hali aniqlanmagan foydali qazilma uchun imzoli bonus geologiya qidiruv uskunalari uchun bojxona bojlari hamda yer soliqlari undirilish amaliyoti mavjud edi.

O'tgan davr davomida O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning yuqori stavkalari amal qilib kelingan, masalan oltin (25%) va misga (15%) isloxotlarning keyingi bosqichlarida davlat korxonalariga 15%gacha, va xususiy sektorga 10%gacha pasaytirildi, neft uchun – 20%, gazga – 30% miqdorida soliq solinib kelindi. Mazkur soliq turi bo'yicha soliq bazasini aniqlashda konni (quduq) rentabelligini inobatga olinmagan shu sabadan kam daromadli sohalarga investisiya kiritishga sun'iy to'siq yuzaga kelgan.

Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federasiyasidagi kabi foyda solig'i va yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari juda ham bir-biriga zid bo'lmasligi lozim aks holda hududga chet el kapitalini kiritilishning muqobil yo'nalishlarini izlab topishga zarurat tug'diradi.

1-jadval. Dunyo mamlakatlarida korporativ soliq stavkalari qanday

Mamlakatlar	Korporativ soliq		
	Foyda solig'i stavkasi	Dividend solig'i stavkasi	Umumiy stavka
O'zbekiston	15	5	19,3
Rosiiya	20	13	30,4
Qozog'iston	20	5	24,0
Armaniya	20	5	24,0
Ozarbajon	20	10	28,0
Belarusiya	18	13	28,7
Qirg'iziston	10	0	10,0
Tojikiston	23	12	32,2
Turkmaniston	8	10	17,2
Moldaviya	12	6	17,3
Ukraina	18	5	22,1



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.


Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Mazkur 1-jadval ma'lumotlarida soliqning umumiy stavkasi O'zbekiston Respublikasida qo'shni mamlakatlardan Rossiya, Qazog'iston, Tojikistondan sezilarli darajada past ekanligi ko'rinib turibdi.

Kam rentabelli konlarni ishalab chiqarish jarayoniga keng jalb etish maqsadida geologik qidiruv ishlarini amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalarga yengilliklar joriy qilinadi. Qazib olingan (ajratib olingan) qora, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallar, shuningdek, noyob va noyob yer elementlarini haqiqatda realizatsiya qilish hajmini soliq solish ob'yekti sifatida inobatga olish tizimi belgilandi. Uglevodorod va metallar uchun soliq bazasini aniqlashda ushbu foydali qazilmalarni o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib hisoblash amaliyotiga barxam berildi.



1-rasm Dunyo mamlakatlarida misga yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi, % da*

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek, dunyo bo'yicha misga yer qa'ridan foydalangandik uchun soliq stavkasi zrtacha hisobda 6-8 foizni tashkil qilib, eng yuqori stavka Mongoliyada 18,3%ga teng bo'lsa, Argentinada ushbu maxsulot uchun soliq stavkasi 1,1%ni tashkil qiladi.


Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com



XX Сопоставимые страны

2-Rasm. Dunyo mamlakatlarida oltinga yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi, % da*

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki dunyo mamlakatlari bo'yicha oltin uchun soliq stavka o'rtacha hisobda 5-8% ni tashkil qilmoqda. Taqqoslash uchun misol qiladigan bo'lsak, Rossiyada 5,7%ni, Qozog'istonda 3.3%ni, Turkiyada 2,2%ni tashkil etgan.

5. Xulosa va takliflar

Mavzu bo'yicha o'rganishlar asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Kam rentabelli konlarni o'zlashtirish amaliyotini keng qo'llab, mahsulot taqsimotiga oid bitmlar doirasida konlarni muayyan muddatga chet ellik investorga bitim asosida berish amaliyotini bekor qilish;
2. «Netback» mexanizmi bo'yicha dastlabki ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashish harajatlarini soliq solish yoki soliq bazasini aniqlash maqsadida to'liq avtomatlashtirish.

Adabiyotlar/Literatura/Reference

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.